

№ 2 (6)
2025



ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASI
NÓKIS FILIALI

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI / ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА / BULLETIN OF MUSIC AND ART

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSI

ILIMY-METODIKALÍQ JURNAL





**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ BILIMLENDIRIW,
ILIM HÁM INNOVACIYALAR MINISTRIGI
ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ MÁDENIYAT MINISTRIGI
ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIASÍ
NÓKIS FILIALÍ**

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ
Ilmiy-metodikaliq jurnal

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI
Ilmiy-uslubiy jurnal

ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА
Научно-методический журнал

BULLETIN OF MUSIC AND ART
Scientific-methodical journal

№ 2(6)/2025

SHÓLKEMLESTIRIWSHI:

Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali

Bas redaktor: – Allanbaev Rudakiy, *professor*

Juwaplı xatker: – Kamalova Difuza, *filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori, docent.*

REDKOLLEGIYA AGZALARI:

OZODBEK NAZARBEKOV – Ózbekstan Respublikası Mádeniyat ministri, professor;

AZIZBEK TURDIEV – Ózbekstan Respublikası Mektepge shekemgi hám mektep bilimlendiriw ministri orınbasarı, filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

KAMOLIDDIN URINBAYEV – Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası rektori, professor;

AMANULLA RIZAYEV – kórkem ónertanıw ilimleriniń kandidati, professor;

HIKMAT RAJABOV – professor;

ORAZALI TOSHMATOV – professor;

BAXT AZIMOV – pedagogika ilimleri kandidati, docent,

MUHABBAT TOLAXOJAEVA – kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

MARFUA XAMIDOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

BOLTABOY SHODIYEV - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, docent;

OZODA TOSHMATOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

SAYYORA ĞAFUROVA – professor;

OYDIN ABDULLAEVA – professor;

IRODA MIRTALIPOVA – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

PARAXAT MAMUTOV – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

QURBANBAY JARIMBETOV – filologiya ilimleriniń doktori, professor;

ALIMA BERDIMURATOVA – filosofiya ilimleriniń doktori, professor;

ZIYADA BEKBERGENOVA – filologiya ilimleriniń doktori (DSc), professor;

ARTÍQBAY EREJEPOV – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent;

JAÑABAY MARZIYAEV – filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent;

Jurnal qaraqalpaq, ózbek, rus hám ingliz tillerinde baspadan shıǵarıladı. Jurnal Ózbekstan Respublikası Prezidenti Administraciyası janındaǵı Málimleme hám ǵalaba kommunikaciýalar agentligi tárepinen mámleketlik dizimnen ótkerilgen. №047569 4-oktyabr, 2022-jıl.

Ózbekstan Respublikası Joqarı Attestaciya Komissiyasınıń 2024-jıl 30-iyuldaǵı 358-sanlı qararı tiykarında jurnal 17.00.00-Kórkem ónertanıw ilimleri jónelisi boyınsha dissertaciya nátiyjelerin baspadan shıǵarıw ushın arnalǵan jetekshi ilimiy jurnallar qatarına kiritilgen.

Redakciya mánzili: Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali Sh.Abdirov 2-jay.

E-mail: ozdknf@edu.uz, UZDK_Nukus@exat. Tel: 551020540 Veb-sayt: <https://science.uzdknf.uz/>

ISSN-2181-4112

YOSHLARNING MA'NAVİY TARBIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA MADANIYAT VA SAN'ATNING O'RNI VA AHAMIYATI

Yusupaliyeva D.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlarning ma'naviy tarbiyasini takomillashtirishda madaniyat va san'at sohasining o'ri haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, hozirgi kunda yoshlarni yot g'oyalar va mafkuralardan asrashda, ishsiz yoshlarning bo'sh vaqtini madaniyat va san'at sohasiga yo'naltirish orqali tashkil etishga alohida urg'u beriladi.

Kalit so'zlar: yoshlar tarbiyasi, madaniyat, san'at, ijodiy salohiyat, ma'naviy barkamollik.

Аннотация: В статье рассматривается роль культуры и искусства в воспитании духовности молодежи. Также особое внимание уделяется необходимости правильной организации свободного времени безработной молодежи, ограждения ее от чуждых идей и идеологий, направления в сферу культуры и искусства.

Ключевые слова: воспитание молодежи, культура, искусство, творческий потенциал, духовное совершенство.

Abstract: This article discusses the role of culture and art in improving the spiritual education of young people. Also, special emphasis is placed on directing youth to the sphere of culture and art in protecting them from foreign ideas and ideologies, and in properly organizing the free time of unemployed youth.

Keywords: youth education, culture, art, creative potential, spiritual perfection.

Kirish. Bugungi kunda yoshlar turli ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik muammolarga har kuni duch kelmoqdalar. Bu qiyinchiliklarni madaniyat va san'at sohasi yengib o'tishga yordam beradi, chunki san'at yoshlarga o'z his-tuyg'ularini ifoda etishga, o'zlarining iqtidorini ko'rsatishga va ijtimoiy tarmoqlardan olgan stresslarni kamaytirishga imkon beradi. Ijod – yoshlarning psixologik va ma'naviy holatini, tarbiyasini yaxshilashda katta ahamiyatga egadir. Yoshlarning ma'naviy tarbiyasiga ijodning ta'siri keng qamrovli va cheksizdir. Madaniyat va san'at sohasi insonning ma'naviy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Ijodga yo'naltirilgan yoshlar nafaqat ijodiy, balki ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan yuqori salohiyat va tarbiyaga ega bo'lib boraveradi.

Asosiy qism. Bugungi kunda yoshlar tarbiyasida muammolari deyarli barcha mamlakatlar uchun umumiy masaladir. Yoshlar tarbiyasi mavzusi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida shunday dedi: "Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "virusi" tarqalishining oldini olish.

Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz. Albatta, jahon yoshlari faoliyati va ijodi to'g'risida ko'plab ijobiy misollar keltirish mumkin: fan va texnika, ijod, san'at va sportning barcha turlari bo'yicha yoshlar tomonidan qo'lga kiritilayotgan natijalar, albatta, insonni quvontiradi. Ayni paytda yana va yana global ko'lamlarda aynan yoshlar tarbiyasida yechimini kutayotgan muammolar mavjudligini tan olishimiz, e'tirof etishimiz kerak. Afsuski, ilg'or qarashli, o'qimishli, odobli va kelajagini bugundan, yoshlik chog'idan qurayotgan yoshlar bilan bir qatorda, ishyoqmas, qo'pol, takasaltang, savodsiz va gumroh o'spirin yoshlar ham uchrab turibdi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bunday yoshlar ham dunyoviy, ham diniy savodsiz bo'lib, ularning tarbiyasiga oilalarida kam e'tibor berilgan, asosan, moddiy ta'minlab qo'yish bilan cheklanilgan [1: 9].

Albatta, oilada ma'naviy tarbiya faqatgina moddiy topish-tutish bilan cheklanib qolsa bu salbiy oqibatlarga olib keladi. Shu sababdan ma'naviyat oilada tarbiyalanishini unutmazlik zarur. Yoshlarning faqat moddiy ta'minoti bilan cheklanib qolmaslik kerak. Ularni ma'naviy jihatdan rivojlantirish uchun ularning ehtiyojlariga mos tarzda turli madaniy tadbirlar tashkil etish, ijodga yo'naltirish zarur. Ayniqsa, yoshlar o'z hayotlarida haqiqiy ijobiy rol modellarini ko'rishlari kerak. Ular ustozlar, san'atkorlar, muvaffaqiyatli kishilar yoki jamoat arboblari bilan uchrashib, o'zlarining kelajagini qanday qurishlarini ko'rishlari, maslahat olishlari va kelajagini tahlil qilishlari kerak. Shu bilan birga, yoshlarning iqtidori va salohiyatini ijobiy tomonga o'zgartirish uchun ular moddiy va ma'naviy tomondan ham qo'llab-quvvatlanishi kerak. Bu sa'y-harakatlar orqali yoshlarni ijobiy tomonga yo'naltirish va ular uchun kelajakda foydali imkoniyatlar yaratish mumkin.

Biz avval an'anaviy tarzda sanoqligina mafkuraviy xurujlarni bilardik. Lekin hozir ularning salmog'i ham, turi ham ortib bormoqda. Ba'zan uning hatto

mafkuraviy tahdid ekanini kimdir anglamay qolmoqda. Bularning barchasi tezkorlik bilan, har kuni, millionlab informatsiyalar ichida berilmoqda. Yoshlarni manipulyatsiya qilish, bizga yot, qadriyatlarimizga begona odatlarni singdirishga urinishmoqda. Bugun ijtimoiy tarmoqlarda ideal dunyo, ideal hayot, degan xavflar paydo bo'lmogda. Internetda yashab, kontentlar bilan o'ylaydigan, trendlar ichida yashaydigan, natijada o'z hayotidan norozi, internetdagi go'zal, ideal tasvirlar qurboniga aylanayotgan avlod shakllanib kelmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, feyk, ya'ni noto'g'ri axborotlar to'g'ri, haqqoniysiga qaraganda 6 barobar tez tarqaladi. Bu bugun axborot makonimizda mafkuraviy tahdidlar xavfi shu daraja yuqori ekanini ko'rsatadi. Ma'lum bo'lishicha, global mediaplatformalardagi kontentlarning 70 foizi G'arb davlatlari tomonidan tarqatiladi. Bu bugun har 10 nafar o'zbek bolasining 8 nafari G'arb qadriyatlari ta'sirida yashamoqda, o'ylamoqda, harakat qilmoqda, degani. Buning xavfi esa ertagina emas, bugunoq ko'zga tashlana boshladi.

2023-yilda dunyo bo'yicha har soniyada 8,4 kishi turli ijtimoiy tarmoqlarga obuna bo'lgan, 2024-yilda ularning soni 5,6 foiz o'sib, 266 million nafarga ko'paygan. Hozir Yer yuzida ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari soni 5,04 milliarddan ko'p bo'lib, ular bir kunda o'rtacha 2 soatu 23 daqiqa vaqtini internet uchun sarflaydi. Ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazilayotgan so'rovnomalarga berilayotgan achinarli javoblar, yoshlarimiz olayotgan videokontentlar, o'ylab topilayotgan bayramlar-u urf-odatlarini aytmasa ham bo'ladi. Sababi bugun dunyo bo'ylab 60 foiz odam axborotni ijtimoiy tarmoqlar orqali oladi. 2023-yilda siyosiy jarayonlarning beqarorlashuviga 100 dan ortiq yirik kiberhujum sabab bo'lgan [2: 5].

Bu kabi yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir qiluvchi omillardan saqlanishda yoshlarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarni ijtimoiy tarmoqlardan uzoqlashtirish va ularni ma'naviy jihatdan foydali faoliyatlarga jalb qilishda madaniyat va san'at sohasidan samarali tarzda foydalanishning bir qancha usullarini keltirib o'tishimiz mumkin. Madaniyat va san'at yoshlarni musbat tomonga yo'naltirish, ularning dunyoqarashini kengaytirish va vaqtlarini samarali o'tkazishga yordam beradigan katta ijodiy kuchdir. Yoshlarni musiqa, raqs, rassomlik, teatr kabi ijodiy faoliyatlar bilan shug'ullantirish, ularning kreativlik qobiliyatini rivojlantiradi. Ijtimoiy tarmoqlarda vaqt sarflayotgan yoshlar o'zlarining qimmatli vaqtlarini bekorga sarflayotganligini kech anglab yetadi. Ayniqsa yoshlarni bolaligidan madaniy tadbirlar, san'at ko'rgazmalari, teatrga, musiqa festivallari va shunga o'xshash tadbirlarga ishtirok etishini ta'minlash zarur. Sababi, yoshlarni bunday tadbirlarga

jalb qilish, ularning san'atga qiziqishini oshiradi va ijtimoiy tarmoqlardan uzoqlashtiradi.

Yoshlarni ijtimoiy tarmoqlardan uzoqlashtirish va ularni foydali faoliyatlarga jalb qilishda davlatimiz tomonidan ham katta tashkiliy ishlar amalga oshirilmoqda.

Madaniyat va san'at yoshlar ma'naviy tarbiyasini oshirib, ijtimoiy tarmoqlarga bo'lgan ehtiyojini kamaytiradi, ma'naviy rivojlanishiga hissa qo'shadi. Bu yoshlar uchun yot g'oyalardan saqlanish va ijobiy o'zgarishlar yaratish imkoniyatlarini taqdim etadi. Har qanday ezgu maqsad inson omili vositasida ro'yobga chiqadi. Jamiyatdagi rivojlanish xalqning salohiyati bilan chambarchas bog'liq. Odamlar tafakkuri o'zgarmaguncha jamiyat o'zgarmaydi. Jamiyatda ong yuksalmaguncha davlat taraqqiy etmaydi. Binobarin, o'z ishiga kreativ yondashadigan, bilimli, mas'uliyatni chuqur his etadigan, zamon bilan hamqadam odimlaydigan xalqqa Uchinchi Renessans poydevorini yaratish g'oyasining hayotdagi ro'yobini ta'minlay olishi mumkin.

Prezidentimiz ijod ahlini "Inson qalbining muhandislari", deya ta'riflagani bejiz emas. Xoh adabiyot, xoh kino, xoh teatr, bastakorlik, qo'shiqchilik san'atiga daxldor bo'lsin, ular yaratgan asarlar kishini ma'nan ulg'aytiradi, qalbiga ezgu tuyg'ularni, umuminsoniy tushunchalarni, fazilatlarni joylaydi.

Biz, madaniyat, san'at, ijodkor-ziyolilar o'z salohiyatimiz, asarlarimiz, mehrimiz bilan xalqimizning ezgu qadriyatlarini yanada boyitish, ongu tafakkurini yangilash, ma'naviy, madaniy saviyasini yuksaltirish, hayot tarzini o'zgartirishga hissa qo'shishimiz kerak. Shu ma'noda, iqtisodiy islohotlar bilan birga madaniy, ma'rifiy, ma'naviy rivojlanishni omixta, uyg'un olib borish maqsadida qator qonun, farmon va qarorlar, farmoyishlar qabul qilindi. Zero, davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi – ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya'ni bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatga tayanamiz. Darhaqiqat, bugun ma'naviyatning negizini tashkil etuvchi sohalar ma'rifat, adabiyot, madaniyat va san'atni yanada rivojlantirish, ularning jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini oshirish bo'yicha salmoqli ishlar qilinmoqda.

O'tgan davr mobaynida mazkur sohalarga doir qator hujjatlar qabul qilinib, huquqiy asoslar mustahkamlandi.

Xususan, "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Ilk bor O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada

rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi [3; 3]. Albatta bu kabi islohotlar zahirida yoshlarning ma'naviy tarbiyasini takomillashtirish vazifasi turadi.

Ayni damda yoshlar hayotidagi muammolarni bartaraf etishga, ularning tafakkurini yanada yuksaltirishga qaratilgan barcha xatti-harakatlar, qabul qilinayotgan dastur va qarorlar ertangi kunimiz manzarasini aniq tasavvur qilishga imkoniyat yaratadi. Ma'naviyat bugungi kunda butun insoniyatni muhim muammosiga aylanib ulgurdi [4; 3].

O'tmishdan ma'lumki, insoniyat taraqqiyotining rivojlanish bosqichida ma'naviyat sohasi hamisha dolzarb masala sifatida e'tibor qaratilgan. Aslini olganda, ma'naviyat insonni o'zligini anglatuvchi betakror mo'jizaviy kuch-qudratga egadir. Ma'naviyat shunday qudratli kuchdirki, u millatimiz, xalqimizni buyuk va ulug'or maqsadlar sari birlashtiruvchi bayroqdir. Bugun dunyo miqyosida shiddat bilan qechayotgan bunday jarayonlar ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga, jumladan, ma'naviy-ma'rifiy sohalarga ham jiddiy ta'sir o'tkazmoqda. Mana shunday murakkab bir sharoitda tinchlik, barqarorlikni asrash, mustaqillikni mustahkamlash har bir davlat oldida turgan ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda aniq maqsadga yo'naltirilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish borasida samarali ishlar qilinmoqda [5; 362].

Lekin, shunga qaramay yoshlar orasida haligacha ko'proq pul topish, ma'naviyatdan ko'ra moddiyatni birinchi o'ringa qo'yish halotlari ham uchrab turadi. Masalan, birgina migrantik masalasiga e'tiboringizni tortmoqchimiz. Kuzatuvlardan yana shular ma'lum bo'ldiki, migrantlarning aksariyati, ya'ni 43,2 foizi so'nggi 3 yil (2017-2019 yillar) mobaynida mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun xorijga borish bo'yicha passiv harakatlanayotganliklarini ta'kidlab bu ko'rsatkich eng ko'p Jizzax viloyatida (68,0%) kuzatilgan bo'lsa, eng kam Qoraqalpog'iston Respublikasi (14,7%) va Xorazm (19,3%) viloyatlarida kuzatildi. Mamlakatimizning shimoliy qismida joylashgan ushbu hududlar aholisi Qozog'iston Respublikasi va Rossiya Federasiyasiga yaqin joylashganligi sababli tez-tez borib turishlari kuzatildi. Masalan, Xorazm viloyati migrantlarining 2/5 qismi va Qoraqalpog'iston Respublikasi migrantlarining 1/3 qismi so'nggi 3 yil mobaynida respublikaning boshqa viloyatlariga nisbatan xorijga bir necha marotaba ko'proq borib kelayotganliklari kuzatilgan. Ma'lumki migrantlarning ko'pchiligi Rossiya Federasiyasida mehnat qilishadi va olingan ma'lumotlarga ko'ra 15-29 yosh migrantlar tarkibida bu davlatda mehnat qilganlarning eng ko'p qismi Qashqadaryo (12,9%), Andijon (12,1%) va Samarqand (11,6%) viloyati yoshlari hissasiga to'g'ri keladi. Urf-odatlar va so'zlashuv tili o'xshash bo'lganligi

tufayli Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisi mavsumiy Qozog'iston Respublikasida mehnat qilishadi va ushbu davlatda mehnat qilganlar tadqiqotda ishtirok etgan migrant yoshlarning 29,5 foizini tashkil etgan. O'tgan yillarda yosh migrantlarimiz soni keskin ortib borayotgan Turkiya davlatida mehnat qiluvchilar asosan Toshkent shahri (23,2%), Toshkent viloyati (17,9%), Andijon (15,9%) va Samarqand (15,2%) viloyatlari aholisi hissasiga to'g'ri keldi. Janubiy Koreyaga borib mehnat qilganlarning aksariyat qismi, ya'ni 2/5 qismi 23,5 foizi Toshkent viloyati va Toshkent shahri yoshlariga to'g'ri kelgan. Uzoq xorijga borgan migrantlarning yarmidan ortig'i (53,6%) Toshkent shahar migrant yoshlari hisobiga ekanligi aniqlangan [6; 50].

Biz bu ko'rsatkichlarni bejiz keltirib o'tmadik. Agar yoshlarimiz ijodiy faoliyatga ko'proq jalb etilsa, kelajakda xorijga migrant emas, balkim ijodkor sifatida ishlashga emas, ijodiy tadbirlarga boradi. San'at, musiqa, adabiyot, teatr, dizayn, arxitektura kabi sohalarda mahoratga ega bo'lgan yoshlar xorijda o'z kasbiga mos ishlar topishi va yuqori malakali mutaxassis sifatida ishlash imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu esa, ularni faqat qora ishlar bilan cheklashdan ko'ra, ijodiy ishlarini dunyo bo'ylab tanitishga imkon beradi. Madaniyat va san'at sohasidagi yoshlar nafaqat o'z mamlakatidagi, balki xorijdagi madaniy jarayonlar taraqqiyoti uchun ham munosib hissa qo'shadilar. Madaniyat va san'at sohasida yuqori darajali ish o'rinlarida ishlash imkoniyati bo'ladi.

Xulosa. Ma'naviy tarbiya yoshlarning to'g'ri dunyoqarashini shakllantirishga, mustahkam hayotiy tamoyillarini takomillashtirishga yordam beradi. Bugungi kunda globalizm, texnologik o'zgarishlar va turli xil ijtimoiy ta'sirlar yoshlarni noaniq turmush tarzi va ma'naviy inqirozga olib kelishi mumkin, shuning uchun ma'naviy tarbiyani kuchaytirish, milliy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish zarur. Yoshlarni ma'naviy jihatdan to'g'ri tarbiyalash uchun faqat ota-ona yoki o'qituvchilar emas, balki jamiyatning barcha qatlamlari – san'at, madaniyat, ta'lim tizimi va davlat organlari ham mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi kerak. Faqat bunday yondashuv bilan yoshlarning ma'naviy rivojlanishi mustahkamlanadi va ular ijtimoiy hayotga faol va mas'uliyatli fuqarolar sifatida qo'shilishlari mumkin. Shu bilan birga, ma'naviy tarbiya yoshlarni salbiy ta'sirlardan himoya qilish, ular orasida axloqiy inqirozga yo'l qo'ymaslik va shaxsiyatning sog'lom rivojlanishini ta'minlashda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev: "Biz uchun ma'naviyat – insonlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, hurmat va e'tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo'lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir. Boshqacha aytganda, barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan

poydevordir – deb ta’kidlab o’tgan edi. Shu bois, yoshlarning ma’naviy tarbiyasiga har tomonlama e’tibor qaratish, ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini yuqori darajaga ko’tarishga yordam beradi. Ma’naviy barkamollik esa jamiyatning barqaror va sog‘lom rivojlanishining poydevori bo‘ladi.

“Globallashuv davrida o‘zga kuchlar har bir insonga individual madaniyat taklif qilyapti. Bunday qarash nafaqat milliy, balki umuminsoniy qadriyatlarga ham tahdid solyapti. Agar befarq bo‘lsak, bunday kuchlar insoniy madaniyatni tanazzulga olib kelishi mumkin. Biz o‘sha umuminsoniy fazilatlarni saqlab qolish uchun ham madaniyatlar uchrashuvi maydonini asrashimiz kerak – degan edi O.Nazabekov.

Tarixdan ma’lum: Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari – uyg‘oq qalbli ziyolilar, shoirlar va adiblar, san’at namoyandalari, ma’naviyat va ma’rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur[7:1].

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning ma’naviy tarbiyasini takomillashtirishda ziyolilar, shoirlar, adiblar, san’at namoyandalari va ma’rifat sohasidagi mutaxassislar, har doim o‘z jasorati va fidoyiligi bilan muhim rol o‘ynagan. Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston yangi rivojlanish bosqichida ekan, bizga aynan shunday ma’nan yetuk kadrlar kerak. Bu kadrlar g‘arb ilm-fan yutuqlarini o‘zlashtirib, milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan bo‘lishi, zamonaviy bilimlar bilan qurollangan, xalimizning milliy qadriyatlarini chuqur anglagan bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Minovarov Sh. Yoshlarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, ularni ijtimoiy va ijodiy faollikka undashda milliy-diniy an’analarning ahamiyati// Yangilanayotgan jamiyatda yoshlarning ijtimoiy faolligi: muammo va yechimlar mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to‘plami – Toshkent: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2020. – 296 b.
2. Hasanov O. Ma’naviyat — millat ruhi, shaxs mas’uliyati// gaz. Yangi O‘zbekiston № 3 (1329). – Toshkent.: Kolorpak. 2025. 6 b.
3. Nazarbekov O. Ortga qaytmas islohotlar maqsadi har birimizda yaratuvchanlik shijoatini uyg‘otadi // Gaz. Yangi O‘zbekiston 203-son. – Toshkent.: Kolorpak, 2023. 6 b.

4. Umirzaqova, Sh G'. Globallashuv jarayonlari va yoshlar ma'naviy kamolotida tarbiya masalalari. Uz Conferences. Vol. 1. No. 2. 2025.
5. Xudoyqulov X. Talaba-yoshlarning ma'naviy-tarbiyaviy ongini shakllantirishda pedagogik hamkorlikning o'rni va ahamiyati//Academic research in educational sciences, vol. 5, no. NUU conference 3, 2023, 47-55.
6. Ismatov I. M. Tashqi mehnat migratsiya jarayonlarida yoshlarning ishtiroki// "Dunyo globallashuv jarayoni va O'zbekiston yoshlari" mavzusidagi onlayn xalqaro yoshlar ilmiy-amaliy va nazariy konferensiyasi maqolalar to'plami – Toshkent.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020. - 163 b.
7. <https://president.uz/uz/lists/view/6941>

MAZMUNÍ

MUZÍKATANÍW

1	Султанова Е. ФОРТЕПИАННОЕ ТРИО ФРАНСИСА ПУЛЕНКА В КОНТЕКСТЕ ФРАНЦУЗСКОЙ КЛАССИЧЕСКОЙ МУЗЫКИ XX ВЕКА	3
2	Миркасымова Э.З. ИСПОЛНИТЕЛЬСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КАК ВАЖНЕЙШИЙ ЭТАП ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МУЗЫКАНТА	9
3	Мирсолихова Х.М. МУСИҚИЙ АСАР УСТИДА ИШЛАШ ЖАРАЁНИ ҲАҚИДА	16
4	Тожибоев С. ИСЛОМ ДИНИ БИЛАН БОҒЛИҚ МАРОСИМ ВА БАЙРАМЛАРДАҒИ МУСИҚИЙ АНЪАНАЛАР	21
5	Abatbaeva R.A. KOMPOZITORLAR IJODIDA BALLADA JANRINING SHAKLLANISHI VA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	34

KÓRKEM ÓNER

6	Allanbaev R.O. “SUYMAGANGA SUYKALMA” MUSIQALI DRAMASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	41
7	Аббарова М. ЎЗБЕКИСТОН ВА ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН АЁЛ КОМПОЗИТОРЛАРИНИНГ ТАҒАҚҚУРИ МОҲИЯТИ	52
8	Aytmuratov B.K. AKTYOR INDIVIDUALLIGINI SHAKLLANTIRISHDA ROL YARATISH USLUBIYATINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI	59
9	Azimov K. DIRIJYORLIK TEXNIKASINING NAZARIY MASALALARI	68
10	Eminov N. “ALPOMISH” MUSIQALI DRAMASIGA AYRIM CHIZGILAR	73
11	Gulmanov I. DÁSTÚRIY HÁM ZAMANAGÓY MUZÍKADA DÁP ÁSBABÍNÍN RAWAJLANÍW BASQÍSHLARÍ	80
12	Jaqsımuratova B. VOKAL ATQARIW SHÍLÍGÍNÍN TARIYXIY EVOLYUCIYASÍ	86
13	Karimova N. FESTIVAL TUSHUNCHASI VA ULARNIG ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	92
14	Kazakbayeva M. ARIYALAR USTIDA ISHLASH JARAYONIDA JO‘RNAVOZNING AHAMIYATI	98
15	Kutekeeva R. QORAQALPOG‘ISTON OPERA SAN‘ATIDA MILLIY OBRAZLAR TALQINI	104

16	Matjanova M. ATQARIWSHILIQ MADENIYATIDA KONCERTMEYSTERDIN TIYKARGI WAZIYPALARI	110
17	Sharipov N. ZAMONAVIY FANDA AYOL OLIMALARNING O'RNI	117
18	Osman Kopadze. THE SOFT POWER IMPACT OF TURKISH TELEVISION SERIES ON UZBEK SOCIETY	122
19	Paxratdinova L. SKRIPKANING KELIB CHIQISHI VA IJROCHILIK AN'ANALARI	130
20	Shukurov A. TEATR SAN'ATINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY VA ZAMONAVIY YONDASHUV	136
21	Tursunov E. AN'ANAVIY YO'NALISHDAGI XONANDALIK ASARLARI BOSHQA MILLAT VAKILLARI IJROCHILIGIDA	147
22	Измаилов А.М. ФОРМИРОВАНИЕ ОРКЕСТРОВОЙ ФУНКЦИИ ЗВУКОВЫСОТНЫХ УДАРНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В XVI–XVII ВЕКАХ	153
23	Давыдова Т. СТИЛЕВЫЕ ОСОБЕННОСТИ СИМФОНИЧЕСКИХ ОПУСОВ ТУЛКУНА КУРБАНОВА	165
24	Миркасымова Э.З. ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ И СТИЛЕВЫЕ ПРИНЦИПЫ ФОРТЕПИАННЫХ ЦИКЛОВ Д.САЙДАМИНОВОЙ.	170
25	Charshemov J.A. QARAQALPAQ KOMPOZITORLARININ XOR USHIN JAZILGAN SHIGARMALARI	177

MUZIKA PEDAGOGIKASI

26	Djumaniyazov U.M. XALQ MUSIQA IJODIYOTINI O'RGANISHGA PEDAGOGIK YONDASHUV	187
27	Yusupaliyeva D. YOSHLARNING MA'NAVIY TARBIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA MADANIYAT VA SAN'ATNING O'RNI VA AHAMIYATI	196
28	Muratbaev A. ORFF METODI TIYKARIDA MUZIKA SABAQLARIDA SAZ ASBAPLARDAN PAYDALANIV	204
29	Мелькумова Э.И. ФИЛОСОФСКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВАНИЯ НАУЧНОГО ПОЗНАНИЯ: СТРУКТУРА, ЛОГИКА И ТРАНСФОРМАЦИЯ В КОНТЕКСТЕ СОВРЕМЕННОСТИ	210
30	Абдуллаева А. РАБОТА НАД ФОРТЕПИАННЫМИ ПЬЕСАМИ Р. ГЛИЭРА В КЛАССЕ ОБЩЕГО ФОРТЕПИАНО	217

31	Saidumarov I. ESTRADA XONANDALIGI SAN'ATI HAMDA VOKALDAN DARS BERISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA AHAMIYATI	223
----	--	-----

JÁMIYETLIK-GUMANITAR PÁNLER

32	Бердиниязова Н.К. МЕҲНАТ ЖАМОАСИДА КАСАБА УЮШМАСИНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ	228
33	Пердебаева К.Р. БАСПАСӨЗ ДИЗАЙНЫ ҮСТИНДЕ ИСЛЕЎ (Газетаның арнаўлы санлары анализи мысалында)	234

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER
XABARSHÍSÍ
Ilimiy-metodikalıq jurnal

